POLSHANING “CENZIN” KOMPANIYASI BILAN USHRASHUV O‘TKAZILDI

// 30.03.2022
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/cenzin

Bugun “O‘zkimyosanoat” AJda Polshaning import va eksport bilan shug‘ullanuvchi “CENZIN” kompaniyasi Prezidenti va bosh ijrochi direktori Robert Vardak boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda “CENZIN” kompaniyasi tomonidan “O‘zkimyosanoat” AJ tizim korxonalarida ishlab chiqarilayotgan kimyo maxsulotlariga nafaqat Polshada balki Yevropa, Afrika hamda Janubiy Amerika mamlakatlarida ham qiziqish va talab yuqori ekanligi ma’lum qilindi. Qolaversa, kompaniya sanoat uchun zarur bo‘lgan texnik uskunalar va butlovchi qismlarni xorijiy davlatlardan yurtimizga keltirib berish bo‘yicha ham o‘z takliflarini bidirdi. Uchrashuv davomida “O‘zkimyosanoat” AJ hamda “CENZIN” kompaniyasi o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va hamkorlikda investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari yuzasidan muzokaralar o‘tkazildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati